13-Mavzu. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar motorika xususiyatlari

Reja:

1. Motorika haqida umumiy tushuncha.
2. Nutq buzilishlarida motorika xususiyatlari.
3. Nutqida kamchiligi bor bolalarning motorika buzilishlarining diagnostikasi, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning motorikasini rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Umumiy motorika, mayda motorika, mimik motorika, artekulyatsion motorika, rivojlanish,buzilish, korreksiya,kamchilik.

Motorika 4 turda bo‘ladi:

Umumiy motorika	Mayda motorika	Mimik motorika	Artekulyatsion motorika
Miyaning motor reflekslari orqali harakatlarni tartibga solish	Qo‘l va oyoqlarni muvofiq harakati	Emosional holatlar orqali mimik harakat	Artekulyatsiya harakati

Harakat turlari:

- Skelet mushaklarining qisqarishi nafaqat maqsadga qaratilgan harakatlanishni amalga oshirishga, balki tortishish kuchlariga qarshi turishga va oz holatini saqlashga qaratilgan.
- Inson harakatlarining aksariyati refleksdir– ularni amalga oshirish uchun refleks yoyining barcha qismlaridan nerv impulsi o‘tishi kerak. Ammo markaziy

asab tizimining motor markazlarida ham avtomatik dasturlar – har qanday tashqi ogohlantirishlar bo‘lmaganda ham sodir bo‘ladigan jarayonlar mavjud.

- Bolada nutq rivojlanishi uning umumiy rivojlanishining asosiy xususiyati hisoblanadi.
- Nutq va miya o‘rtasida yaqin aloqa mavjud.
- Nutq eng yuqori aqliy funksiyadir, shuning uchun uning ishlashi miyaning ishlashiga bog‘liq.
- Miyaning yetuk holati, shakllangan artikulyatsiya apparati va shakllangan eshituv nutqni rivojlanishi uchun muhim omildir.
- Ushbu bolalardagi nutq buzilishlarini har tomonlama tahlil qilgan olimlardan **R.E.Levina, L.S.Volkova, T.B.Filichiva, G.V.Chirkina** va boshqalar bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishi umum va mayda motorikani rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligini isbotlaganlar.
- Bolaning intelektual rivojlanishi va maktab jarayoniga tayyorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri nutq hamda tafakkur va albatta umumiy hamda mayda qo‘l motorikalarining rivojlanishi, yani ularning yuqori darajada shakllanganligida bola mantiqiy fikr yurita oladi, uning diqqati va xotirasi hamda faol nutqi yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Bu esa normal rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqoriligidan dalolat beradi.

B.A.Suxomlinskiy bolalarning qobiliyatlari va iste’dodlarining kelib chiqishi ularning qo‘llarida, yani ijodiy fikrlarning manbai bo‘lgan nozik motorika bo‘lib, bolaning qo‘l harakatlarida qanchalik ishonch va zukkolik bo‘lsa, masalan, qo‘lning qalam, qaychi va shunga o‘xshash asbob-uskunalar bilan mutanosibligi, o‘zaro bog‘liqligi nozik harakatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, uning ijodiy elementi shunchalik yorqin bo‘ladi**,** bolaning aqli- bolaning qo‘lida qancha mahorat bo‘lsa shunchalik yuqori bo‘ladi, degan fikrni bildirgan.

Mashhur pedagog, bolalar nutqi tadqiqotchisi **M.M.Koltsovaning** fikriga ko‘ra, barmoqlarning harakati tarixan rivojlanish jarayonida nutq funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ibtidoiy odamlarning birinchi muloqot shakli imo-ishoralardan

tashkil topib, qo‘llarning roli muhim bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar imo-ishora orqali, qo‘llar orqali muloqot qilib, nutqni rivojlanishiga qo‘l harakatlari imkon bergan.

Xitoy donishmandlaridan biri bo‘lgan **Taoistning** fikricha:

- Barmoq massaji tanani mustahkamlaydi va ruhni tetiklashtiradi.
- Miya faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Barmoq mashqlarining oddiy usullari ham insonning umumiy rivojlanishi, aynan aqliy rivojlanishi uchun juda katta foyda keltiradi.

- Agar barmoq harakatlari, yani mayda qo‘l motorikasi rivojlanishi orqada qolsa, nutqning rivojlanishi ham kechikadi. Mutaxassislarning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barmoq harakati markaziy asab tizimining rivojlanishi va bola nutqining rivojlanishi tezlashishini isbotladi.

Italiyalik pedagog Mariya Montessori bolalar bilan ishlashda qo‘l mahoratidan muvaffaqiyatli foydalanish kerak, degan fikrni doim qo‘llagan. Uning fikricha erta maktabgacha yoshda hissiy rivojlanish, dunyoni bilish “jonli tafakkur”, hissiy jarayonlar sezgi va idrokdan boshlanadi.

Tadqiqotlar shuni isbotladiki, nutq, tafakkur, motorika bir butundir.

Pedagog V.A.Suxomlinskiy “Bolaning ongi uning barmoq uchida”degan.

Nemis olimi Emmanuel Kant qo’llarni miya yarim sharlarining ko’rinadigan qismi deb atagan.

Italiyalik pedagog Mariya Montessori bolalar bilan ishlashda qo’l mahoratini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega degan fikrni bildirgan.

Hissiy rivojlanish mayda qo‘l motorika ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liq chunki ushlash, tegish, paypaslash insonning 5 ta sezgilaridan biri bo‘lib, bola erta yoshda barcha narsani ushlash orqali ma’lumotga ega bo‘ladi.

Nutqiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning umum va mayda qo‘l motorikalarini rivojlantirishda o‘ziga xizmat qilish malakalari orqali, yani kiyinish tugma qadash, poyabzalini kiyish va iplarini bog‘lash, o‘yinchoqlarni yig‘ishtirish, qutiga joylash

kabi topshiriqlarni bajarish orqali diqqatni jamlash, harakatlarni muvofiqlashtirish, aniq bajarish, bir harakatdan ikkinchi harakatga o‘tish ketma-ketligida bola mustaqilligi va bajarayotgan ishidan zavqlanish holati qobiliyati, shaxsiy sifatlaridan chaqqonlik, ga’yratlilik shakllanadi.

Kistyakovskaya bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining asosiy shartlaridan biri harakatlarining o‘z vaqtida va har tomonlama rivojlanishi ekanligini ta’kidlaydi:

- Harakatlar markaziy asab tizimining funksiyalarini yaxshilaydi.
- Umum va mayda qo‘l motorika harakati, yani qo‘llar, oyoqlar harakatlarini rivojlantiradi.
- Muvofiqlashtirish, yani oyoq va qo‘llarning bir vaqtning o‘zida harakatini rivojlantiradi.
- Qo‘lda epchillik-muvofiqlashtirilgan va tezkor harakatlar shakllanadi.

Mayda qo‘l motorika - qo‘llar, barmoqlar va oyoq barmoqlarining kichik va aniq harakatlarini bajarishda ko‘ruv idroki bilan birgalikda asab, mushak, skelet tizimlarining muvofiqlashtirilgan harakatlaridir.

Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish quyidagi harakatlarda muhim vazifa hisoblanadi:

- Kiyinish....
- Ovqat yeyish...
- Chizish, yozish, yasash...
- Mehnat qilish....

NTR bolalar ko‘pincha murakkab ko‘rsatmalarni unutishadi, topshiriqni ba’zi elementlarini o‘tkazib yuboradilar va berilgan topshiriq, vazifalar ketma-ketligini o‘zgartirib yuboradilar. Bolalarda og‘zaki-mantiqiy fikrlash orqada qolganligi sababli tahlil, farqlash va taqqoslash jarayonlarida qiyinchilikka duch keladilar. Bunday bolalar chalg‘ishlar va tez charchoqning kuchayishi bilan turli xil xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar. Umumiy zaiflik bilan harakatlarning ketma-ketligini

unutish, muvofiqlashtirishdagi noaniqliklar, epchillikning yo‘qligi, tezlik talab qilinadigan topshiriqlarga kechikish harakatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Nutq nuqsonlariga ega bolalar motorika xususiyatlari:

- Og‘ir dizartrik bolalarda umumiy va mayda qo‘l motorikalarida yaqqol buzilishlarni ko‘ramiz. Bolalardagi falajlanish oqibatida umumiy motorika koordinasiyasi, artekulyasion mimik va mayda qo‘l motorika buzilishlari namoyon bo‘ladi.
- O‘ziga xizmat qilishdagi qiyinchiliklar, noqulayliklar, barmoqlarning yetarli darajada harakati muvofiqlashmaganligi, bir holatda tiqilib qolish yani kiyinish, tugma qadash, tugmani yechish, bog‘ichlarni bog‘lash yoki bo‘shatish va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin.
- Harakat sohasidagi buzilishlar yani dizartriya nutq nuqsonidagi bolalarda taktil sezgilarning pastligi motor buzilishlar natijasida tana, qo‘l mushaklari sust yoki taranglashadi.

Umumiy va mayda qo‘l motorikalarini rivojlantirish uchun ko‘plab psixokorreksion usullar ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida didaktik tamoyillar asosida oddiydan murakkabgacha tamoyili orqali boladagi nuqson, uning yosh xususiyatlari imkoniyatlari aniqlangan holda o‘yinlar va mashqlarni tanlash va olib borish talab etiladi.

Bolalarda o‘yin va mashqlarni tizimli olib borish va darhol natija kutmaslik kerak, chunki mahoratni oshirish takroriy takrorlash orqali rivojlanadi, bir mashqni malakali o‘zlashtirishi uchun doim mashg‘ulotlarda o‘tqazilishi natijaviy bo‘ladi.

Mashqlar ketma-ketlik tartibi asosida o‘tkazilishi shart. Masalan, avval o‘ng qo‘lda so‘ng chap qo‘lda o‘tkazish, agar muvaffaqiyatli bajarilgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida ikkala qo‘lda bajarilishi va oyoq harakatlarini qo‘shish mumkin.

Agar bola doimo bir o‘yinni davom ettirishni talab qilsa, uning e’tiborini boshqa vazifani bajarishga, o‘tkazishga harakat qilishimiz kerak. Hamma narsada me’yor bo‘lishini nazorat qilish kerak. O‘yin jarayonida bolaning holati nazorat qilinib borilishi zarur, agar haddan ortiq charchoq va qiyinchiliklar kuzatilsa, bolada mashg‘ulotlarga nisbatan sovuqqonlik, qiziqishning pasayishi paydo bo‘ladi.




Mayda qo‘l motorikani rivojlantirishda ko‘plab o‘yinlar mavjud. Ularni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- sezgi va idrokni rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- suv va qum bilan rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- barmoq harakatlari orqali rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- musiqa ohangida barmoqlar harakati, tana harakati, ikkalasi bir vaqtning o‘zida harakatli o‘yinlar va boshqalar.

Turli nutq nuqsonlarida motorikani tekshirish va rivojlantirish texnologiyalari

Sensorika	Motorika	Sensomotorika
Sezgilarni,tashqi ta’sirlarni bevosita idrok etish. Sensor tizim yordamida qo‘zg‘atuvchilarni idrok etishga qaratilgan asab tizimining funksiyasidir.	Motor qobiliyatlar-insonga xos bo‘lgan motor reaksiyalar, qobiliyatlar,ko‘nikmalar va murakkab harakatli faollik yig‘indisidir.	Sensor va motor komponentlarning o‘zaro koordinasiyasidir. Sensor-ma’lumotni olish, ma’lum harakatlarni amalga oshirishga olib keladi, tartibga soladi, nazorat qiladi yoki tuzatishga hizmat qiladi.


Organizmning harakat faolligi - bu biror bir vazifani bajarish uchun zarur ketma-ket harakatlar yig‘indisi.



Praksis va apraksiya

Praksis – amaliy predmetli harakatni bildiradi. Inson bunday harakatlarni hilma-hil shakllarini: eng oddiy (ovqatlanish, kiyinish...) lardan eng murakkab , masalan professional ko‘nikmalargacha egallaydi.

Praksisning buzilishi –apraksiyadir.



Ontogenezda mayda qo‘l matorikasining rivojlanishi:

V.M. Bekhterev, qo‘lning harakatlari har doim nutq bilan chambarchas bog‘liqligini va uning rivojlanishiga ta’sir etishini yozgan.

I.P. Pavlov nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘liqligi sababli, ikkala qo‘lning funksiyalrini ishlab chiqish har ikki yarim sharda nutq “markazlari”ning rivojlanishini ta’minlashini, intellektual rivojlanishda afzallik berishini ta’kidlagan.

T.P. Xrizmanning tadqiqotlari ritmik harakatlarning fiziologik roli miyaning funksional holatiga o‘ziga xos yuqori ta’siri ekanligini ko‘rsatadi va miya

yarim sharlarining ish samaradorligini turg‘un ravishda oshirishga ko‘maklashishini ko‘rsatadi.

L.V. Fominaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bolalarda barmoqlar harakati ustida ishlash tovushlar artikulyatsiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga sabab bo‘lishini isbotlagan.



Umumiy va mayda motorikani tekshirish:

- Umumiy ixtiyoriy motorikani tekshirish.
- O‘z tanasida va qarama-qarshi o‘tirgan kishining tanasida mo‘ljal olishni o‘rganish.
- Fazoviy tushunchalarni farqlashni o‘rganish.
- Harakatning ko‘ruv-fazoviy mo‘ljal olishni o‘rganish (Xed testi).
- Qo‘l harakatlarining kinestetik asoslarini o‘rganish.
- Harakatlarni tashkil etilishining optik-kinestetik asoslarini o‘rganish (praksik harakatlar).



Konstruktiv praksisni aniqlash

- Sinkineziyalarni aniqlash.
- Qo‘l harakatlarining kinetik asoslarini o‘rganish.
- Fazoviy idrokni o‘rganish.
- Vizual-motor koordinatsiyasini o‘rganish (grafik namunalar).
- Manometrik test.
- Harakat tezligini o‘rganish (vertikal chiziqlarni chizish).



Umumiy ixtiyoriy motorikani tekshirish


- Bir oyog‘inda turib ko‘r: avval o‘ng, so‘ng chap.
- Ikki oyoqda oldinga sakra.
- To‘pni ot va tutib ol.
- Joyinda turib, qadam tashlab yur.
- Zinapoyadan tepaga chiq va pastga tush.

O‘z tanasida va qarama-qarshi o‘tirgan kishining tanasida mo‘ljal olishni o‘rganish

- Chap qo‘lingni ko‘rsat, chap qulog‘ingni ko‘rsat, chap oyog‘ingni ko‘rsat.
- Meni chap qo‘limni ko‘rsat, meni chap qulog‘imni ko‘rsat, chap oyog‘ingni ko‘rsat

Fazoviy tushunchalarni farqlashni o‘rganish (qog‘oz varog‘da):

- Rasm markazida nima joylashganini ko‘rsat.
- Kvadratning chap tomonida qanday shakllar joylashgan?
- Kvadratning o‘ng tomonida qaysi geometrik shakl bor?
- Kichik uch burchakning tagida qaysi shakl jo‘ylashgan?
- Aylana va katta kvadratning o‘rtasida qaysi shakl joylashgan?
- Rasmning pastgi qismida qaysi shakl joylashgan?



Harakatning ko‘ruv fazoviy mo‘ljal olishini o‘rganish (Xed sinovi):




- Men o‘ng qo‘limni ko‘rsatganimda, sen ham o‘ng qo‘lingni ko‘rsatasan.
- Chap qo‘limni ko‘targanimda sen ham chap qo‘lingni ko‘tarasan.
- O‘ng qo‘lini ko‘tar, o‘ng qo‘ling bilan chap qulog‘ingni ushla (tekshiruvchi qara-qarshisida o‘tiradi).
- Men o‘ng qo‘lim bilan qiladigan harakatlarimni o‘ng qo‘ling bilan (ushlab ko‘rsatib) bajar.
- Men chap qo‘lim bilan qiladigan harakatlarimni sen chap qo‘ling bilan (ushlab ko‘rsatib) bajar.

Qo‘l harakatlarining kinestetik asoslarini o‘rganish:


- O‘ng qo‘lini pastga tushir. Bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqni musht qilib buking, bosh barmoqni chapga buring.
- Ikkala qo‘l barmoqlarini mushtla, bosh barmoqni yuqoriga ko‘tar.
- O‘ng qo‘lni musht bilan siqib, uning ustiga chap qo‘lni qo‘y.

- O‘ng qo‘lni musht qil, chap qo‘lni vertikal ravishda unga suyantir.




Haraktlarni tashkil etilishining optik-kinestetik asoslarini o‘rganish (holatlar praksisi)


- Birinchi va ikkinchi barmoqlarning uchini birlashtirib, uzuk holatiga keltir (taqlid asosida).
- Musht holatidagi barmoqlardan ikkinchi va uchinchisini yozing (quyoncha qiling).
- Ikkinchi va beshinchi barmoqlarni cho‘zing (echkicha qilin).
- Meni orqamdan qaytar.





Konstruktiv praksisni aniqlash

▶ Ikki, uch, to‘rt, besh qismdan iborat turli xil kesilgan kesma rasmlarni birlashtirish









Sinkineziyalarni aniqlash


Bolani kafti toza qog‘ozga joylashtiriladi va qalam bilan yurg‘izib chiqiladi, so‘ng to‘rtinchi barmoqdan tashqari bolaning hamma barmoqlarga navbat

bilan har biriga tegib, faqat shu barmog‘ingizni ko‘taring, deya ko‘rsatma beriladi. Kontur yordamida boshqa barmoqlarning majburiy haraktlari qayd etiladi.



Qo‘l harakatlarini kinetik asoslarini o‘rganish


- Galma-galdan o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan ikkinchi, uchinchi, to‘tinchi, beshinchi barmoqlarga bosing.
- Huddi shu topshiriqni chap qo‘lda bajaring.
- Huddi shu topshiriqni ikka qo‘lda bajaring.
- Meni orqamdan qaytar (musht, qovurg‘a va kaft).



Fazoviy idrokni o‘rganish


- Sizda qog‘oz va qalam bor, varoqqa namuna asosida rasm chizing (uy, daraxt ...).

Vizual motor koordinatsiyasini o‘rganish (grafik namunalar)



Aylananing kesish Manometrik testi

Keng chiziq bo‘ylab doira kes.



Harakat tezligini o‘rganish (vertikal chiziqlarni chizish)

- Belgi berishim bilan chegaralardan chiqib ketmasdan vertikal chiziqlar chizishni boshla.
- 10 soniya vaqt beriladi.
- 30 soniya dam oladi va topshiriqni qayta bajaradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi,1993.
- Ayupova M Logopediya; T-2007.
- Troshin Logopsixologiya, 2006.
- Lautkina Logopsixologiya o‘quv qo‘llanma M-2001
- Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.,2013.
- Do‘stmuxamedova Sh.,Nishanova Z.,Jalilova S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.,2013.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalashda motorikani o‘rni nimalardan iborat?
2. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish uchun motorikani rivojlantirish hamda qo‘llashda nimalarga ahamiyat beriladi?
3. Bolalarda motorikani tekshirish qaysi usullar yordamida amalga oshadi?
4. Qaysi nutq nuqsonida umumiy motorika ustida alohida ishlash talab etiladi?